

## SHAXS VA NARSA NOMINI BILDIRGAN SÒZLAR USTIDA ISHLASH

Mahammadjonova Fotima Alisher qizi

Andijon viloyati Shahrixon tuman

64-IDUM maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Shaxs va narsa nomini bildirgan sòzlar ustida ishlashda pedagoglar e'tiborli bo'lishlari lozim, chunki bu mavzu o'quvchilarning dunyoqarashi kengaytirish uchun qulay va biroz murakkab mavzulardan biri. Dars davomida didaktik o'yinlar va interfaol metodlardan foydalanish mumkin, masalan, "Rolli o'yinlar", "Raketa" o'yini va boshqalar.*

**Abstract :** *Pedagogues should be careful when working on words that express the name of a person and thing, because this topic is one of the easy and somewhat complicated topics for expanding students' worldview. Didactic games and interactive methods can be used during the lesson, for example, "Role-playing games", "Rocket" game, etc.*

**Аннотация:** *Педагогам следует быть осторожными при работе со словами, выражающими название человека и вещи, поскольку данная тема относится к числу легких и в некоторой степени сложных тем для расширения мировоззрения учащихся. На уроке могут использоваться дидактические игры и интерактивные методы, например, «Ролевые игры», игра «Ракета» и др.*

**Kalit so'zlar:** *"Raketa" o'yini, "Rolli o'yinlar", pedagogik mahorat, mulohaza, metod.*

**Key words:** *"Rocket" game, "Role-playing games", pedagogical skill, reflection, method.*

**Ключевые слова:** *игра «Ракета», «Ролевые игры», педагогическое мастерство, рефлексия, метод.*

Ona tili darslarini ko'pchilik o'quvchilar zerikarli hisoblaydilar, chunki ona tili darsida ko'proq yozish mashg'uloti bilan bog'liq topshiriqlar bajariladi, lekin ona tili darslarini ham qiziqarli tashkil etish mumkin va bu esa, albatta, o'qituvchining pedagogik mahorati, turli xil qiziqarli metod, o'yin va usullardan foydalanish ko'nikmalariga bog'liq. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili darslarida zerikarli deb hisoblash hollari ko'p bo'lishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq o'yinqaroq bo'lishadi, lekin qiziqarli o'yinlar bilan ularni darsga qiziqtirishimiz mumkin. Buni "Shaxs va narsa nomini bildirgan sòzlar ustida ishlash" mavzuda ba'zi bir metodlar orqali ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Rolli o'yin" metodini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki bu orqali o'quvchilarning kirishimlilik qobiliyati yoshlikdan shakllanadi, bola o'z fikrlarini bemalol aytish qobiliyatini oshiradi, yangi qobiliyatlar kashf etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida rollar ijro etish mahorati ko'pchilik o'quvchilarda tug'ma bo'ladi lekin ularning tortinchoqligi yoxud o'qituvchining e'tiborsizligi sababli ular uyatchang bo'lib qoladi hattoki darsni tushunmasa ham savol berolmaydi, chunki uyaladi.

“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi “Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
- ✓ O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
- ✓ O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
- ✓ Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
- ✓ O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi.
- ✓ Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.[1]

Bu metodni "Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar ustida ishlash" mavzuda qanday ishlatish mumkin? Masalan, mavzuga doir so'zlar aytiladi: bo'ri, qalpoq, keksa ayol. O'quvchilar narsa va shaxs nomlari ekanligini anglaydi va undan tashqari ular so'zlarga mos "Qizil qalpoqcha" ertagini sahnalashtiradi. Chunki o'quvchilar bu ertakni bog'cha yoshidan biladilar, o'qiganlar.

Doska yonida uch xil shakldagi bulutlar bo'lib, ulardan gilos, o'rik va qulupnay yomg'iri yog'adi. O'quvchilar istagan bulutning biridan, ya'ni gilos bulutidan gilos, qulupnay bulutidan qulupnay yoki o'rik bulutidan o'rik mevalari rasmini olib, uning ortiga yozilgan so'zlarga so'roq beradilar. Masalan, gilos mevasi ortiga «Quyvonlar» so'zi yozilgan bo'lsa, o'quvchi unga «Nimalar?» – deya savol beradi va o'z joyiga o'tiradi.

Mashq orqali ko'rib chiqamiz :142- mashq. Rasmlarni ko'rib chiqing, so'roqlarga javob bering.

Avval «Nima?» so'rog'iga javob bo'lgan, so'ng «Nimalar?» so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing. So'zni o'qigan o'quvchilar ketma-ket doskaga chiqib, uni namunali husnixat bilan yozadi. O'qituvchi ularning yozganlarini nazorat qilib boradi. O'tirgan o'quvchilar ham mashqni chiroyli qilib daftarga yozishlari kerak.

Nima? – Lola...

Nimalar? – Lolalar...[2]

1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

*Uy hayvonlari: sigir, qo'y, ot*

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

**Namuna:** ot-insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.[3,840-841]

“Raketa” o'yini. 1-bosqich.

Doskaga raketa rasmi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yozilgan kartochkalar ilinadi.. Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Qaysi guruh a'zolari savollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi. 3-bosqich. To'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi.

Yangi mavzuni tushuntirish paytida raketa yetib borgan sayyoradan kelgan ma'lumotlar sifatida mavzu tushuntirilsa qiziqarliroq bo'ladi.[4,192-193]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiyasi pedagoglarning oliy maqsadidir va bu maqsadga pedagogik mahoratlar ko'mak beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.<http://www.kompy.info/mavzu-informatika-va-axborot-texnologiyalari-fanidan-darsdan-t.html?page=2>

2.<http://btr2014.zn.uz/2015/02/13/mavzu-shaxs-va-narsa-nomini-bildirgan-sozlarga-doir-mashqlar-bajarish/>

3.SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337, Turakulova Mexribon Choriyevna,  
Turakulova Adolat Choriyevna, BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL  
METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH, 840-841

4.Ustozlar uchun, O'rinboyeva Gulnoza, BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
O'QITUVCHILARINING O'YINLI METODLAR ASOSIDA DARS  
TASHKILLASHLARI UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR, 192-193-b